

XALQ ERTAKLARINI O'QITISHDA PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

*Qurbaniyazova Zulkumar Sali qizi,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistranti
zulkumarqurbaniyazova6@gmail.com*

Annotatsiya. Xalq ertaklarini o'qitishda PISA topshiriqlari asosida samarali o'qitish usullarini tahlil qiladi. Xalq og'zaki ijodini tushunarli va qiziqarli tarzda o'rgatishda PISA metodologiyasining qanday ishlashini o'rganadi. PISA topshiriqlari o'rganuvchilarga analitik fikrlash, matnni tushunish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada shu bilan birga, PISA metodining xususiyatlari, uning xalq ertaklari orqali o'quvchilarga qanday ta'sir qilishi va bu usullarning amaliyotdagi samaradorligi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar. Innovatsion usul, tahliliy topshiriq, mantiqiy fikrlash, podshoh, malika, hunar, metod, diagramma.

HALK MASALLARININ ÖĞRETİMİNDE PISA ÖDEVLERİ KULLANMANIN ETKİLİ YOLLARI

*Qurbaniyazova Zulkumar Sali qizi,
Ajiniyaz Nukus devlet pedagoji enstitüsü yüksek lisans öğrencisi*

Özet. Halk masallarını öğretirken PISA, ödevlere dayalı etkili öğretim yöntemlerini analiz eder. PISA metodolojisinin halk sözlü yaratıcılığını anlaşılır ve ilginç bir şekilde öğretmede nasıl çalıştığını inceler. PISA ödevleri, öğrencilerin analitik düşünme, metin anlama ve değerlendirme becerilerini geliştirmelerine yardımcı olur. Aynı zamanda makale, PISA yönteminin özelliklerini, halk hikayeleri aracılığıyla okuyucuları nasıl etkilediğini ve bu yöntemlerin pratikte etkinliğini detaylandırıyor.

Anahtar kelimeler. Yenilikçi yöntem, analitik görev, mantıksal düşünme, Kral, Kraliçe, zanaat, yöntem, diyagram.

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАДАНИЙ PISA ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ НАРОДНЫХ СКАЗОК

*Курбаниязова Зулкумар Салиевна,
Магистрантка Нукусского государственного
педагогического института имени Аджинияза*

Аннотация. Анализирует эффективные методы обучения на основе заданий PISA в преподавании народных сказок. Изучает, как работает методология PISA в обучении устному народному творчеству в доступной и интересной форме. Задания PISA помогают учащимся развивать аналитическое мышление, понимание и оценку текста. В статье также подробно описываются особенности метода PISA, его влияние на учащихся через народные сказки и эффективность этих методов на практике.

Ключевые слова. Инновационный метод, аналитическое задание, логическое мышление, король, королева, ремесло, метод, диаграмма.

EFFECTIVE WAYS TO USE PISA ASSIGNMENTS TO TEACH FOLK TALES

Qurbaniyazova Zulkumar Sali qizi

Master's student of Nukus State pedagogical institute named after Adjiniyaz

Abstract. Analyzes effective teaching methods based on PISA tasks in teaching folk tales. Learn how the PISA methodology works in teaching folklore in an understandable and engaging way. PISA tasks help learners develop analytical thinking, text comprehension, and evaluation skills. The article also provides detailed information about the features of the PISA method, how it affects students through folk tales, and the effectiveness of these methods in practice.

Keywords. Innovative method, analytical task, logical thinking, king, queen, craft, method, diagram.

PISA bo'yicha tayyorlangan topshiriqlar tizimli tayyorlanganda oddiy matnlar ustida ish olib borilmasligini o'qituvchi ham, o'quvchi ham anglab yetishi taqozo qilinadi. [1; B.49.]. Haqiqatan ham zamonaviy kashfiyotlar yaratilayotgan davrda adabiy ta'limgar jarayoniga olib kiradigan har bir matn, topshiriq va innovatsiyalarimiz ham puxta o'yangan, oldindan rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Topshiriqni tayyorlash davomida nafaqat matnning to'g'ri tanlanishiga, balki o'quvchilarga taqdirm qilinadigan savollarning tizimli tashkillashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratish darkor.

PISA topshiriqlari:

O'quvchilarning o'qish savodxonligi, matn ustida ishslash, tushunish, tahlil qilish va turli ma'lumotlarni birlashtirish salohiyatini o'chaydi;

Hayotiy vaziyatlarga asoslangan;

Turli turdag'i matnlar bilan ishslashni o'z ichiga oladi (adabiy, funksional, informatsion).

O'quvchilarda rivojlanadigan kompetensiyalar:

Tanqidiy fikrlash;

Muammolarni yechish;

Argumentlangan fikr bildirish;

O'z fikrini yozma va og'zaki ravishda ifodalash.

PISA topshiriqlarida jadval, grafik, rasm, diagramma bilan ishslash muhim. Masalan: Ertakdag'i voqealar ketma-ketligini ko'rsatuvchi diagramma tuzing. Qaysi voqealarni burlish nuqtasi bo'ldi?

Hunar haqida ertak

Burungi zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. U bir kambag'alning qiziga uylanmoq chi bo'lib, sovchi yuboribdi. Sovchilar kelib, podshohning niyatini qizga aytishibdi. Qiz sovchilarga:

– Podshohga aytinlar, olmoqchi bo'lsa, men ham roziman. Lekin podshoh bir hunar bilsagina, tegaman, bilmasa – o'rgansin, – debdi.

Sovchilar podshohning oldiga kelib qizning shartini aytishibdi.

Podshoh bu gapni eshitib, avval achchiqlanibdi, so'ng o'ylanib turib, qizning gapi ta'sir qilibdi: "Podshohligim hunar emas ekan-da. Xayr, hunar ham o'rganay", deb o'z o'rniغا vazirini qoldirib, hunar axtarib chiqib ketibdi. Hamma hunarlarni ko'ribdi, oxiri gilamchilik ma'qul bo'libdi. Gilam to'qiydigan bir yaxshi ustani topib, unga shogird tushibdi. Uch yil-u uch oy deganda gilam to'qishni o'rganibdi. Bir gilam to'qib qizning uyiga yuboribdi. "Hunar o'rgandik, shartini bajardik", debdi. Qiz:

– Podshoh shartni bajargan bo'lsa, men ham so'zimda turibman, – debdi.

Podshoh to'y-tomashta qilib, qizga uylanibdi.

Kunlardan bir kuni mamlakatdagi savdogarlar, katta-katta boylardan bir qanchasi g'oyib bo'libdi. Qancha axtarishmasin, baribir ularning daragini topisholmabdi. Bu xabar podshohga yetib kelibdi. Podshoh: "Bularni o'zim axtarayin, shaharda bir sir borga o'xshaydi, buni bilmasam bo'lmaydi", deb podshohlik kiyimlarini yechib, boshqa kiyimlar kiyib, kechasi xalq uxlagandan keyin shaharni aylanmoqchi bo'lib saroydan chiqib ketibdi. Aylanib yursa, uzoqdan bir chiroq ko'rinibdi. Podshoh to'g'ri shu chiroq ko'ringan joyga borsa, bir oshxonasi ekan. Oshxonaning ichida ko'p odam ovqat yeb o'tirgan ekan. Eshikni ochib qarashi bilan oshxonasi egasining ko'zi unga tushibdi va:

– Nima ishingiz bor? – deb so‘rabdi.

Podshoh:

– Qornim och, ovqat yemoqchiman, – debdi.

Oshxona egasi:

– Qani, ichkari kiring, to‘rga o‘ting, – deb podshohni ichkari xonaga olib kiribdi.

Podshoh to‘rga o‘tayotib yerto‘laga tushib ketibdi.

Qarasa, ro‘parasida bir kishi turibdi. U kishi podshohni sudrab ichkari bir xonaga olib kiribdi.

Xonada odam juda ko‘p ekan. Podshohning ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushibdi. Bir kishi o‘tirgan yeridan shartta turib, qo‘lida katta pichoq: “Qani, hozir navbat kimniki?” deb to‘g‘ri podshohning oldiga kelib, uni so‘ymoqchi bo‘libdi. Podshoh esankirab qolibdi:

– Sizlar kimsizlar?! Sizlarga jon kerakmi, mol kerakmi, pul kerakmi? – debdi. Ular:

– Bizga jondan boshqa bari kerak, u bo‘lmasa, jon kerak, hozir sening kallang kerak, – deyishibdi. Podshoh:

– Pul, mol topib bersam bo‘ladimi? – debdi.

Ular:

– Bo‘ladi, – deyishibdi.

Podshoh:

– Unday bo‘lsa, bir hunar ko‘rsataman, mening aytganimni qilasizlar. Men bir gilam to‘qib beraman, shuni podshohga olib borsanglar, ming tilla beradi, – debdi.

Ular:

– Qani, hunaringni ko‘raylik, – deyishibdi.

Podshoh u kerak, bu kerak deb gilam to‘qish uchun kerakli narsalarni aytibdi. Haligi odamlar bozorga borib, podshoh aytgan narsalarni olib kelishibdi. Podshoh gilam to‘qishga kirishibdi. Gilamni to‘qib bo‘lgach:

– Mana bu gilamni podshohga olib boringlar. Podshoh sizlarga ming tilla beradi, – debdi.

Haligi odamlar gilamni podshoh saroyiga olib borishibdi. Saroydan bir mahram chiqib, gilamni ichkariga olib kirib, vazirga ko‘rsatibdi. Bular podshohning yo‘qolib qolganidan jig‘ibiyron bo‘lib yurgan ekan. Maslahatlashib, gilamni podshohning xotiniga ko‘rsatibdilar. Malika eri to‘qigan gilamni tanib, uni keltirgan odamlarga ming tilla berib yuborib, orqasidan odam qo‘yibdi. O‘g‘rilar tillalarni olib, suyunib to‘g‘ri oshxonaga kirib boribdi. Orqasidan poylab kelgan odam vazirga xabar beribdi. Vazir askarlar bilan kelib, oshxonani o‘rab, ichkariga kirib podshohni topibdi. Podshoh tutqunlikdagi odamlarning barchasini ozod qilibdi. Odam o‘g‘rilarining qo‘llarini bog‘latib, saroya keltiribdi hamda hammasini qatl qilibdi. [2; Б.55.]

O‘zbek xalq ertagi yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yuqoridaq ertak matniga mos keluvchi javobni belgilang.

A) Podshohlik hunar emasligini tushinib yetishimiz kerak.

B) Bilim va hunar egallah orqali o‘zimizga va boshqalarga foyda keltirishimiz mumkin.

S) Hunar orqali o‘z joningizni saqlab qolishingiz mumkin.

D) Podshoh bo‘lish uchun hunar egallah darkor.

Faoliyat: Umumlashtirish va talqin qilish.

Matn formati: Tutash

Vaziyat:

Javob to‘liq qabul qilinadi: B) Bilim va hunar egallah orqali o‘zimizga va boshqalarga foyda keltirishimiz mumkin.

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

2. Quyida berilgan ma’lumotlarning qaysi biri noto‘g‘ri?

A) Podshoh bu hunarni o‘rganish uchun taxminan XXX kun vaqt sarfladi.

B) Odamlarning yo‘qolishi oshxona bilan bog‘liq edi.

S) Podshoh mamlakatda bo‘layotgan vaziyatni bilishi bilan fuqarolarni izlashga kirishibdi.

D) Malika podshohni qutqarish uchun vazirni yubordi.

Faoliyat: Umumlashtirish va talqin qilish.

Matn formati: Tutash

Vaziyat: Ijtimoiy

Javob to'liq qabul qilinadi: S) Podshoh mamlakatda bo'layotgan vaziyatni bilishi bilan fuqarolarni izlashga kirishibdi.

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

3. Quyidagi fikrlardan qaysi biri ertak matnida uchramaydi?

A) Podshoh qizga uch yil-u uch oy deganda uylanibdi.

B) Podshohni oshxona egasi tuzoqqa tushiribdi.

S) Podshoh gilam orqali o'z jonini saqlab qolishga urindi.

D) Yo'qolgan odamlarni toppish uchun chiqqanida podshoh yolg'iz edi.

Faoliyat: Umumlashtirish va talqin qilish.

Matn formati: Tutash

Vaziyat:

Javob to'liq qabul qilinadi: A) Podshoh qizga uch yil-u uch oy deganda uylanibdi.

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

4. Podshohni ta'riflashga mos bir necha to'g'ri javoblarni belgilang.

A) Podshoh ham mehnatkash

B) O'z xalqi uchun jonini xavfga qo'yadi.

S) Boshqa podshohlar kabi soliqni ko'p yig'adi.

D) Nohaqlikka yo'l qo'ymaydi.

E) Kambag'al qizlarga sovchi yuboradi.

F) Faqat vazirining gapiga quloq soladi.

Faoliyat: Matnda aniq ifodalangan ma'lumotlarni topish.

Matn formati: Tutash

Vaziyat:

Javob to'liq qabul qilinadi: B) O'z xalqi uchun jonini xavfga qo'yadi, D) Nohaqlikka yo'l qo'ymaydi.

Javob qabul qilinmaydi: To'liq bo'limgan yoki noaniq javob berilgan bo'lsa.

5. Quyidagi fikrlarning qaysi biri ertak matnida berilgan?

A) Qiz podshohga uzoq o'ylanilgan shartini aytibdi.

B) Mamlakatdagi katta-katta boylarning yo'qolishini podshoh oldindan sezibdi.

S) Podshoh shartni bajarganidan keyin qiz ham shartni bajaribdi.

D) Vazir podshoh to'qigan gilamni tanib qoladi.

Javob to'liq qabul qilinadi: S) Podshoh shartni bajarganidan keyin qiz ham shartni bajaribdi.

Javob qabul qilinmaydi: To'liq bo'limgan yoki noaniq javob berilgan bo'lsa.

Xalq ertaklarini o'qitishda PISA topshiriqlarini tatbiq qilish bo'yicha ishlangan topshiriq namunasini bajarish uchun o'quvchilarga quyidagi tavsiyalar beriladi. Yuqoridaqgi vazifani bajarish uchun 25 daqiqa ajratiladi. Har xil turdag'i topshiriqlardan tashkil topgan. Ayrim savollarda to'rtta javobdan faqat bitta to'g'ri javobni tanlashningiz, ayrim savollarga bir nechta to'g'ri javob berilgan. Ertak matnini diqqat bilan o'qib berilgan savollarga javob toppish kerak. Ayrim savollar oson, ayrimlari esa qiyin bo'lishi mumkin. Agar biror savolga javob berishga qynalsangiz, uni o'tkazib keyingisiga o'ting, oxirida vaqtningiz bo'lsa, bu savolni qayta ko'rib chiqish javob berishingiz mumkin. Agar javobda xatolashgan bo'lsangiz, uning ustiga chizib to'g'ri javobni qayta belgilashingiz mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- Yuldasheva Sh. Ona tili fanidan PISA topshiriqlari. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021, 49-bet.
- Xidoyatova D., Rasulov N., Yuldasheva N., Usmonova N., Xasanova Y. Umumi o'rta ta'limgaktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent. 2022.

3. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX*, 514-516.